

O'RTA ZARAFSHON SUV RESURSLARINING HUDUDIY TAHLILI

Norboyeva Mashhura

Sharosh Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

Anatatsiya: *Mazkur maqolada O'rta Zarafshon havzasi suv resurslari, ularni qishloq xo'jaligidagi ahmiyati hamda irrigatsiya tizimlari haqida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *Irrigatsiya, Ravotxo'ja, Darg'om, MiyonqolToss.*

Asosiy qisim

O'rta Zarafshon havzasi mamlakatimizning qulay geografik o'ringa ega hududlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, viloyat gidrografik o'rning afzalligi haqida alohida ta'kidlash joiz. Bunday qulaylik mintaqaga hududiga kirib keladigan va sarflanadigan suv resurslari miqdoriga, balansiga bevosita bog'liqdir.

Mavjud ko'p yillik ma'lumotlarga qaraganda viloyat hududidagi o'rtacha bir yillik umumiyy suv miqdori 5385 mln m^3 ga teng bo'lib, shundan 251 mln m^3 suv shu joyning o'zida shakllanadi, asosiy suvni esa Zarafshon daryosi keltiradi. Suv resurslarining juda katta qismi, taxminan 75 foizga yaqini mintaqaga hududida sarf bo'ladi (xo'jalikka ishlatiladi, bug'lanadi, shimaladi va hk.), qolgan suv esa daryoga qaytib tushadi va qo'shni viloyatlar iqtisodiyotiga sarflanadi .

Umuman olganda, suv resurslari miqdori har yili ham bir xil bo'lavermaydi. Zarafshon daryosidan tashqari ichki soy va buloqlardan, yer osti suvlaridan hamda zovurlardan suv kelib turadi. Jami suv zahirasining minimal miqdori 2014 yilda kuzatilgan bo'lsa (umumiyy $4888,3 \text{ mln m}^3$, daryo o'zanidan $4090,6 \text{ mln m}^3$), 2010 yil esa ancha sersuv bo'lgan. Ya'ni barcha suv zahirasi 6659 mln m^3 ga yetgan hamda buning 86 foizini (5743 mln m^3) Zarafshon daryosi ta'minlagan. Shundan O'rta Zarafshon havzasi qishloq xo'jaligida foydalilanilgan suv resuslarining bir yillik o'rtacha miqdori $3201,7 \text{ mln m}^3$ ni tashkil etmoqda. Sug'orishga ishlatilgan suvning eng ko'p bo'lgan davri 2016 yilga ($3914,2 \text{ mln m}^3$), eng kami 2014 yilda to'g'ri keladi ($2576,6 \text{ mln m}^3$) . Mazkur tadqiqotda esa suv resuslarining o'rtacha bir yillik miqdori asos qilib olinadi.

O'rta Zarafshon havzasi Zarafshon daryosi suvini tartibga solib turuvchi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (ITHB) ga qarashli oltita irrigatsiya tizimlari boshqarmasi (ITB) dan suv oladi. Ushbu tizimlar ham

asosiy suvni Zarafshondan olish bilan birga boshqa manbalardan ham foydalaniladilar (1-jadvalga qarang).

1-jadval

O'rta Zarafshon havzasiga suv beradigan irrigatsiya tizimlari boshqarma (ITB)lari suv zahiralari va manbalari (mln. m³ his.)

ITB nomi	Umumiy zahira	Manbalar			
		Daryo o'zanidan	Ichki soy va buloqlardan	Yer suvlardan	Zovur lardan
Darg'om	856,4	770,5	38,5	9,0	38,4
	100,0	90,0	4,5	1,0	4,5
MirzaPay	726,5	545,9	9,5	17,5	153,6
	100,0	75,1	1,3	2,4	21,2
NarpayNavoiy	561,4	561,4			
	100,0	100,0			
OqQoradaryo	421,1	341,7	30,8	18,8	29,8
	100,0	81,1	7,3	4,5	7,1
MiyonqolToss	217,9	170,8			47,1
	100,0	78,4			21,6
EskiAnxor	36,0	36,0	0,0		-
	100,0	100,0	0,0		-
Jami	3201,7	2846,4	73,0	58,0	224,3
	100,0	86,1	2,8	1,6	9,5

Ravotxo'ja suv taqsimlovchi inshoati va undan suv oladigan kanallar. Zarafshon daryosi suvidan samarali foydalanish, daryo suvini to'g'ri taqsimlash sug'oriladigan yerlarni suv bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida uning o'rta qismida 3 ta suv taqsimlovchi inshoat qurildi. Daryodan mustaqil suv oladigan kanallar soni qisqartirilib, ular ushbu suv taqsimlovchi inshoatlarga birlashtirildi.

Ravotxo'ja suv taqsimlagich inshoatini qayta qurish loyihasi 1913 yilda ishlab chiqilgan va loyihaga ko'ra 600 m³/sek., suv o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan 1940 yilga kelib chap qirg'og'idagi Darg'om kanal iva o'ng qirg'oq kanali qisman su vola boshlagan. Bu loyihaga ko'ra suv toshqini davrida suv o'tkazish imkoniyati 1350 m³/sek. ga teng. Hozirgi paytda suv toshqini davrida suv sarfi 1023 m³/sek., Yangi Darg'om kanali 125 m³/sek., O'ng qirg'oq kanali ham 125 m³/sek. suv oladi (3.6-jadval).

2-jadval

Ravotxo'ja to'g'oni va unga yaqin hududlardan boshlanadigan kanallar

Kanal nomi	Sug'oriladigan yerlar, 1000 ga his.	Boshlang'ich suv sarfi, m ³ /sek.
Tuyatortar	22,7	24,3
Katta Tayloq	1,5	2,2
Kichik Tayloq	0,5	2,0
Ko'hna Besh	0,4	1,3
Yangi Besh	3,0	3,9
Tos	0,6	1,2
Dam	0,10	0,2
Yangi Darg'om	2,2	3,8

0	Qorasuv Mirzaariq	2,7 18,7	4,1 28,0
1	Oqsuv	1,4	3,1

*irrigatsiya tizimlar boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Darg'om suv ayrig'ich tizimi. Bu Samarqand viloyatidagi eng yirik sug'orish tizimidir. Eski va Yangi Darg'om kanallarining umumiy uzunligi 100 km dan ziyod bo'lib, Urgut, Tayloq, Samarqand, Pastdarg'om tumanlarining 67,5 ming ga yerini suv bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari bu tizim orqali Qashqadaryo viloyatiga ham Eski Anhor kanali orqali suv uzatiladi. Eski Anhor kanalining suv sarfi 45,0 m³/sek. Shuningdek Samarqand shahriga Shovdar va Bog'ishamol ariqlari orqali suv yuboriladi.

Darg'om kanalida Hishrav, Yerteshar, Tolig'ulom-1, Tolig'ulom-2 GES lari qurilgan. Darg'om sug'orish sistemasi asosan 3 ta kanaldan iborat: Yangi Darg'om Ravotxo'ja suv taqsimlagich inshoati bilan bir vaqtda ishga tushirilgan (1926-1930 yillar). Sug'orish Darg'om magistral kanali va Eski Darg'om nishabligi va yemirilish tezligi katta bo'lib, tabiiy suv oqimini eslatadi. U o'rta va quyi oqimida chuqurligi 10-30 m bo'lgan hamda kononga o'xshash shakllarni hosil qiladi. Yangi Darg'om chap qirg'og'idagi barcha kanallarni birlashtirib Darg'om kanaliga 11 km masofadan keyin quyiladi va sug'ori tizimining asosiy manbai hisoblanadi. Uning uzunligi 10,5 km, suv sarfi esa 125 m³/sek. umumiy nishabligi esa 55 m. 600 m masafada yer osti tonellidan o'tadi.

Zarafshon daryosi bilan sodir bo'lishi kutilayotgan muammolarni hal qilishda, Amudaryo va Sirdaryoning taqdiri o'rnak bo'lishi lozim. Chunki, bu borada bir qancha ishlar ham amalga oshirildi va oshirilmoqda. Shuning uchun ushbu masalani hozirning o'zida hal qilish har tomonlama foydali va zarur.

Xulosa

- Gidrouzelning bugungi holatdagi aniq suv o'tkazish qiymatini aniqlash;
- Inshootning loyiha bo'yicha hujjatlari, ya'ni har bir o'tkazish tizimining ko'ndalang qirqimlari va ularni izohlaydigan matnlar yo'qligini inobatga olib mazkur hujjatlarni tiklash;
- To'plangan tajriba asosida inshootdan foydalanish qo'llanmasini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish;
- Boshqarishni ossonlashtirish maqsadida zamонавиу BO'A(Boshqaruv o'lchov apparati) ni joriy qilish;
- Favqulodda vaziyatlarda qilinadigan ishlar bo'yicha ko'nikmani shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳикматов Ф.Х., Хайдаров С.А., Ярашев Қ.С. ва бошқ. Зарафшон дарёси ҳавзасининг гидрометеорологик шароити ва сув ресурслари (монография). - Тошкент: Фан ва технология, 2016, -275 б.
2. Ширинбоев Д.Н. Зарафшон дарёси сув режими нинг антропоген омиллар таъсирида ўзгариши. География фанлари бўйича фалсафа доктори PhD ... диссертация автореферати. - Тошкент, 2021. -48 б
3. Xikmatov F., Yunusov G'.X., Artikova F.Ya., Erlapasov N.B., Dovulov N.L. Daryolar gidrologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Universitet, 2017. -240 b